

## **GENDER VA INSON XAVFSIZLKIGI ASOSLARI: NAZARIY ASOSLARI, GLOBAL TENDENSIYALAR**

**Nurmuxammadova Sarvinoz**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola gender va inson xavfsizligi konsepsiyasi hamda o‘zaro bog‘liqligini nazariy jihatdan va emperik tahlil qiladi. Shu bilan birga bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlarda mazkur ikki tushunchaning ahamiyati atroflicha yoritib beriladi. Maqolada inson xavfsizligi paradigmasi gender o‘lchamini o‘z ichiga olmaguncha to‘liq bo‘la olmasligi hamda ayollarning barqaror rivojlanishni ta’minlashda asosiy omillarda biri ekanligini ko‘rsatadi. BMTning 1325-sonli rezolutsiyasi, BRMning 5 “Gender tengligi” va 16 “Tinchlik, adolat va samarali institutlar” maqasdlari, shu bilan birga O‘zbekistonning gender siyosati qiyosiy tahlil qiliandi.

**Kalit so‘zlar:** gender, gender xavfsizligi, ayollar, inson xavfsizligi, gender tengligi, ayollar va tinchlik, BMT 1325- rezolutsiyasi, BRM, O‘zbekiston gender siyosati.

**Аннотация:** В данной статье теоретически и эмпирически анализируются концепции гендера и человеческой безопасности, а также их взаимосвязь. Наряду с этим подробно раскрывается значение данных двух понятий в современной системе международных отношений. В статье обосновывается, что парадигма человеческой безопасности не может считаться полноценной без включения гендерного измерения, а также подчеркивается, что женщины являются одним из ключевых факторов обеспечения устойчивого развития. Проведен сравнительный анализ Резолюции 1325 Совета Безопасности ООН, Целей устойчивого развития №5 “Гендерное равенство” и

№16 “Мир, правосудие и эффективные институты”, а также гендерной политики Узбекистана .

**Ключевые слова:** гендер, гендерная безопасность, женщины, человеческая безопасность, гендерное равенство, женщины и мир, Резолюция 1325 Совета Безопасности United Nations, Цели устойчивого развития, гендерная политика Узбекистана.

### **Abstract**

This article provides a theoretical and empirical analysis of the concepts of gender and human security, as well as their interrelationship. In addition, the significance of these two concepts in the modern system of international relations is comprehensively examined. The article argues that the paradigm of human security cannot be considered complete without incorporating the gender dimension and highlights that women are among the key factors in ensuring sustainable development. A comparative analysis is conducted of the United Nations Security Council Resolution 1325, Sustainable Development Goal 5 “Gender Equality” and Goal 16 “Peace, Justice and Strong Institutions,” as well as the gender policy of Uzbekistan.

**Keywords:** gender, gender security, women, human security, gender equality, women and peace, United Nations Security Council Resolution 1325, Sustainable Development Goals, gender policy of Uzbekistan.

### **KIRISH**

Hozirgi zamonaviy xalqaro munosabatlarda inson xavfsizligi eng muhim omilga aylanib bormoqda. XX asr oxiriga qadar inson xavfsizligi tushunchasi asosan davlat va harbiy xavfsizligi bilan tenglashtirilib, shaxs va jamiyatning boshqa guruh vakillarining

xavfsizligi ikkinchi darajaga tushib qolgan edi. XXI asr boshlariga kelib xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga inson va jamiyat a'zolarining ijtimoiy himoyasi hamda huquqiy xavfsizlikni ham ola boshladi. Bunga turtki bo'lgan asosiy omillardan biri BMT Taraqqiyot dasturining 1994-yilgi "Inson taraqqiyoti bo'yicha" hisoboti hisoblanad (UNDP, 1994). Shunga qaramasdan inson xavfsizligi konsepsiyasida gender omiliga yetarlicha e'tibor inobatga olinmadi va uzoq vaqt e'tibordan chetda qoldi. Ayollar va erkaklar xavfsizlik tahdidlarini turlicha boshdan kechirishi ko'zdan chetda qoldi.

Feminist xalqaro munosabatlar nazariyasi mazkur muammoni ilmiy va siyosiy muhokamalar markaziga olib chiqdi. J. Ann Tichner (1992) ta'kidlaganidek, xalqaro xavfsizlik diskursi maskulin qadriyatlarga binoan faoliyat yuritib, kuch, raqobat va harbiy qudrat asosida shakllangan va bunda ayollarning tajribasi inobatga olinmagan. Hozirgi kunga kelib esa gender va xavfsizlik kesishmasi xalqaro siyosatning markaziy masalalaridan biriga aylangan. Buni BMTning xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga gender omili kiritilganligi o'z isbotini topadi.

Mazkur maqolaning maqsadi gender va inson xavfsizligi o'rtasidagi munosabatni nazariy va emperik tahlil qilib, huquqiy asosda ko'rib chiqish hamda uning amaliy jarayonini O'zbekiston kontekstida baholash hisoblanadi.

## **INSON XAVFSIZLIGI VA GENDER**

An'anaviy xavfsizlik nazariyasi davlatning harbiy va geosiyosiy xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yadi. Lekin 1994-tildan boshlab "inson xavfsizligi paradigmasi" mazkur tushunchasi tubdan o'zgartirib yubordi. Inson xavfsizligi paradigmasi xavfsizlikni yetti o'zaro bog'liq soha orqali ta'riflaydi. Bular iqtisodiy, oziq-ovqat, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, shaxsiy, jamoaviy va siyosiy xavfsizlik kabi sohalarni o'z ichiga oladi.(UNDP, 1994). Ushbu sohalarning har birini gender tengsizligi ayollar va erkaklar bilan solishtirganda yuqori darajadagi tafavvudni ko'rsatadi. Masalan, iqtisodiy xavfsizlik sohasida dunyo bo'yicha ayollarning faqat 25 foizi rasmiy iqtisodiyotda ishtirok etadi. Bu

yarmidan ham kam qismini qamrab oladi degani. Oziq-ovqat xavfsizligida esa qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining 70 foizini tashkil etuvchi ayollar er-mulk huquqlaridan aksariyati mahrum (FAO, 2011)

Gender xavfsizligini inson xavfsizligidan ajratib bo'lmaydi, ular bir-birini kuchaytiruvchi munosabatda bo'lib, gender inson xavfsizlogini yana mustahkamlab beruvchi omil hisoblanadi. Celestine Nyamu-Musembi (2005) ta'kidlaganidek, inson xavfsizligi gender o'lchamini o'z ichiga olmaguncha faqat erkaklar tajribasini universal sifatida ko'rsatuvchi chala konsepsiya bo'lib qoladi. Shu sababdan zamonaviy xavfsizlik tadqiqotlari tobora ko'proq "genderlashtirilgan xavfsozlik" tushunchasiga murojaat qilmoqda.

Nazariy jihatdan mazkur konsepsiyani to'rtta asosiy yondashuvi mavjud. Birinchisi bu liberal yondashuv, unda ayollarning mavjud xavfsizlik institutlariga tenglik asosida integratsiyasini ilgari suradi. Ikkinchisi, konstruktivist yondashuv bo'lib, genderni ijtimoiy qurilma sifatida ta'riflab, uni o'zgaruvchan ekanligini ta'riflaydi. Feminist yondashuv esa kuch tuzilmalarni tubdan qaytadan ko'rib chiqish kerak ekanligini talab etadi. Postkolonial yondashuv esa mahalliy kontekst, madaniy o'ziga xoslik va tashqaridan yuklatilgan "ozodlik narrative"larning muammolariga e'tibor qaratadi. (Mohanty,1988).

## **GENDER VA XAVFSIZLIKNING XALQARO HUQUQIY ASOSI**

2000-yil 31- oktabrda BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilingan 1325 sonli rezolyutsiya gender va xavfsizlik integratsiyasida tarixiy burilish yasab berdi. Mazkur rezolyutsiya ilk marotaba tinchlikni saqlash, konfliktlarni oldini olish va post-konflikt jarayonlarida ayollarning to'laqonli ishtirokini huquqiy jihatdan majburiy deb e'lon qildi. Hujjat ishtirok, himoya, oldini olish va ta'monit kabi to'rtta ustundan iborat bo'lib, keying barcha xalqaro mexanizmlar uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

1325-sonli rezolyutsiyadan so'ng qabul qilingan hujjatar bu dasturni izchil rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 1820-sonli rezolyutsiya (2008) urush sharoitida jinsiy

zo‘ravonlikni xavfsizlik tahdidi sifatida qayd etdi. 2242-sonli hujjatda (2015) esa “Ayollar, tinchlik va xavfsizlik” dasturini terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish strategiyasi bilan bog‘liq hisoblanadi. 2023-yil holatiga ko‘ra, 100 dan ortiq davlat milliy harakat rejalarini (National Action Plans) ishlab chiqqan. (PeaceWomen, 2023).

BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari doirasida 5-maqsad gender tengligig erishi bo‘lib, 2023-yilgacham bo‘lgan vaqtga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasining poydevori sifatida e’tiorf etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 5-maqsadga investitsiya qilish 1(qashshoqlikni tugatish), 3-(salomatlik) hamda 16-(tinchlik jamiyatlar) maqsadlarga ham ijobiy samara beradi. (UN Women, 2018). 16-maqsadda tinch, adolatli va inklyuziv jamiyatlar, gender tengligi bilan bevosita kesishib, ayollarning qaror qabul qilishga ishtirokini barqaror tinchlikninh zaruriy sharti sifatida belgilaydi.

Gender tengligi va xavfsizl o‘rtasidagi bog‘liqlik faqat nazariy tomondan emas, balkim kuchli emperik asosga ham ega hisoblanadi. Hudson va boshqalar (2012) tomonidan 175 davlatni qamrab olgan tadqiqotda ayollar xavfsizlik ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lgan davlatlarda xalqaro nizolarni ishtirok etish ehtimoli sezilarli darajada pastroqligini kuzatish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ayollar holati davlatning tasgqi xatti-harakati uchun eng yaxshi prediktorlardan biri hisoblanadi.

Misol sifatida Liberiya dagi tinchlik jarayonini (2003) ko‘rishimiz mumkin. Laymah Gbovee boshchiligidagi ayollar harakati “Tinchlik uchun ommaviy harakati” doirasida tinchlik muzokaralari jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatgan hamda kelishuvning imzolanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi (Gbowe, 2011). Gbove 2011-yilda Nobel Tinchlik mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Ruanda parlamenti bugungi kunda ayollar ulushi 61 foizdan ortiq bo‘lib, bu dunyo bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi (IPU, 2023). Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ushbu siyosiy o‘zgarish 1994-yilgi genotsiddan so‘ng mamlakatning tezkor iqtisodiy tiklanishi va ijtimoiy barqarorlashuviga bevosita hissa qo‘shgan. Finlandiya, Norvegiya va Islandiya

tajribasi ham ayollar vakilligining yuqoriligi, korrupsiyaning pastamligi va ijtimoiy farovonlikning yuksaqligi o'rtasidagi korrelyatsiyani tasdiqlaydi.

Andrijevic va boshqalar (2020) tadqiqoti gender tengsizligini bartaraf etishning iqlim o'zgarishlariga moslashuvchanlikni ham oshirishini isbotlagan. Keniya va Tanzaniyada qishloq xo'jaligida ayollar ishtiroki kengaygan hududlarda mahsuldorlik va iqlim moslashuvchanligi ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan (FAO, 2011). Bu esa gender xavfsizligining nafaqat ijtimoiy-siyosiy va ekologik xavfsizlik bilan ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

### **O'ZBEKISTON KONTEKSTIDA GENDER VA INSON XAVFSIZLIGI**

O'zbekiston so'nggi yillarda gender siyosati sohasida muhim islohotlarni amalga oshirdi. 2019-yilda "Ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 2020-yilda "Ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash" qonuni yangilandi. 2022-yilda esa Oila va ayollar qo'mitasi qayta tashkil etildi. Ushbu me'yoriy islohotlar O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarga sadoqatini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning tashqi siyosatida gender xavfsizligi o'lchamining muhim ko'rinishi Afg'oniston masalasida namoyon bo'lmoqda. 2018-yilgi Toshkent tinchlik konferentsiyasi nafaqat mintaqaviy diplomatiyaning yutug'i bo'ldi, balki gender inklyuzivligi masalasini ham kun tartibiga olib chiqdi. O'zbekiston tomonidan afg'on qizlari uchun tashkil etilgan ta'lim loyihalari, gumanitar yordam dasturlari esa ayollar xavfsizligini tashqi siyosatning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish tendentsiyasini ifodalaydi.

Biroq ba'zi muammolar hali ham davom etmoqda. Jahon iqtisodiy forumining Global Gender Gap Report 2023 hisobotida O'zbekiston 146 davlat orasida 94-o'rinni egallagan. Siyosiy vakillik, iqtisodiy imkoniyat va ta'lim sohasidagi gender farqlari qisman saqlanib qolmoqda. Bu ko'rsatkichlar yaxshilanish tendentsiyasini ko'rsatsa-da, tizimli o'zgarishlar uchun hali yo'l bosib o'tish zarurligini bildiradi.

## **XULOSA**

Gender va inson xavfsizligi bir-biridan ajralmas konseptual birlikni tashkil etadi. Inson xavfsizligi paradigmasi gender olchamini o'z ichiga olmasa, u to'liq va inklyuziv bo'la olmaydi. Nazariy dalillar va empirik tadqiqotlar bir ovozdan ko'rsatadiki, ayollar xavfsizligi va huquqlarini ta'minlash nafaqat ijtimoiy adolat talabi, balki davlat barqarorligi, iqtisodiy o'sish va barqaror tinchlikning zaruriy shartidir.

Ushbu tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi: birinchidan, milliy xavfsizlik strategiyalarida gender tahlilini majburiy komponent sifatida joriy etish; ikkinchidan, BMT XK 1325-sonli rezolyutsiyasi bo'yicha milliy harakat rejasini ishlab chiqish va moliyalashtirish; uchinchidan, tinchlikni saqlash va muzokaralarda ayollar vakilligi uchun miqdoriy kvotalar belgilash; to'rtinchidan, gender-sezgir byudjetlashtirish (gender-responsive budgeting) amaliyotini kengaytirish.

O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb bo'lgan yo'nalish mintaqaviy hamkorlikda gender o'lchamini mustahkamlashdir. Afg'onistondagi vaziyat, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik muammolari va iqlim o'zgarishi kabi global muammolar ayollar ishtirokisiz samarali hal etilishi mumkin emas. Shu ma'noda gender xavfsizligi faqat ijtimoiy masala emas, balki strategik diplomatik ustuvorlikdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Andrijevic, M. et al. (2020). Timing of climate change mitigation determines gender-specific vulnerability. *Nature Climate Change*, 10(1), 1–6.
2. FAO. (2011). *The State of Food and Agriculture: Women in Agriculture*. Rome: FAO.
3. Gbovee, L. (2011). *Mighty Be Our Powers*. New York: Beast Books.
4. Hudson, V. M. et al. (2012). *Sex and World Peace*. Columbia University Press.

5. IPU. (2023). Women in Parliament: World Classification. Geneva: IPU.
6. Mohanty, C. T. (1988). Under Western Eyes. *Feminist Review*, 30(1), 61–88.
7. Nyamu-Musembi, C. (2005). Towards an Actor-Oriented Perspective on Human Rights. *IDS Bulletin*, 36(1), 41–51.
8. PeaceWomen. (2023). National Action Plans on Women, Peace and Security. WILPF.
9. Tickner, J. A. (1992). *Gender in International Relations*. Columbia University Press.
10. UNDP. (1994). *Human Development Report 1994: New Dimensions of Human Security*. New York: UNDP.
11. UN Security Council. (2000). Resolution 1325 on Women, Peace and Security (S/RES/1325).
12. UN Women. (2018). *Turning Promises into Action: Gender Equality in the 2030 Agenda*. New York: UN Women.
13. World Economic Forum. (2023). *Global Gender Gap Report 2023*. Geneva: WEF.